

**JADIDSHUNOS OLIM SHERALI TURDIEV TADQIQOTLARIDA
“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY”**

Hulkar Turdieva

*Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsenti, PhD*

***Annotatsiya:** O‘zbek adabiyoti, undagi XX asrning darg‘alari hayoti va ijodi, qismatining o‘rganilishi, yillar davomida millatimizning qardosh va noqardosh xalqlar bilan adabiy aloqalari jarayoni, rivojiga salmoqli xissa qo‘shgan, tarjima asarlari bilan adabiyot ihlosmandlarini xorijiy asarlardan ham boxabar qilgan adib, adabiyotshunos, jadidshunos, tarjimon o‘z davrining serqirra ijodkori Sherali Turdiev ilmiy merosi borasida qisman bayon qilinadi hamda 30 yil avval olim taqdim qilgan va biz tomonimizdan qayta nashrga tayyorlangan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” maqolasi keltiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** jadidshunos, jadid, ma‘rifatparvarlik, Turkiston, taraqqiyparvarlik.*

Sh.Turdiev ijodining hamma davrida maqolalarida, taqrizlarida detallarga atroflicha e‘tibor bilan qaralgan sinchkovlik, qizg‘inlik, ta‘sirchanlik hamda ilmiy xolislikni doimiy xususiyat sifatida kuzatish mumkin.

O‘tgan asrimizning avvalidan boshlab, mustaqillik yillarigacha va uning davomidagi adabiy jarayon, ma‘rifatparvarlar faoliyatlari, taqdirleri, qatag‘on qurbonlari qismatining ochilmagan sahifalarini keng ommaga taqdim etgan, arxiv materiallarini chuqur o‘rgangan, o‘zbek xalqining qardosh xalqlar bilan bo‘lgan adabiy aloqalarga salmoqli hissa qo‘shgan yetuk adabiyotshunos, jadidshunos olim va tarjimon Sherali Turdievning mehnatlarini yoritish, uni tadqiq qilish, jamlash o‘zbek adabiyotshunosligi sohasida yaxshi yangilik bo‘la oladi.

Sherali Turdievning ilmiy kitoblari va maqolalarida 20-yillar o‘zbek adabiyotining qardosh tatar, ozarbayjon, usmonli turk adabiyotlari bilan aloqalari haqida qimmatli ma‘lumotlar bilan birga chuqur ilmiy mulohazalar taqdim etiladi. Ularda Xamza, So‘fizoda, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom va boshqalarning qo‘shni va xorijiy turkiy xalqlar adib va shoirlari – Abdulhaq Homid, Tavfiq Fitrat, Jalil Muhammadqulizoda, Sobir, Abdulla To‘qay, Olimjon Ibrohimov bilan ijodiy aloqalari boy faktik adabiy materiallar asosida batafsil ifoda etiladi. Adabiy hamkorliklar mavzu doirasida esa olim 20-yillar o‘zbek poeziyasi, prozasi va dramaturgiyasi rivojida tatarlarning mashhur dramatik va ma‘rifatparvar yozuvchi va dramaturglari Abdulla To‘qay, Olimjon Ibrohimov, G‘aliaskar Kamol, Fotih Amirxon va boshqa ijodkorlarning samarali hamda barakali ta‘sirlari o‘rganadi. Olim bu ilmiy asarlarini yozishda o‘sha davr o‘zbek, tatar matbuoti va adabiyotining nodir manbalari, turli xil arxiv materiallari va xotiralardan keng foydalangan. Shuningdek, Tatariston, Rossiya, Germaniya, Avstriya, Turkiya, AQSh, Yaponiya, O‘rta Osiyoning barcha mamlakatlari va boshqa davlatlardagi ilmiy konferensiyalarda o‘zining ilmiy ma‘ruzalari bilan

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qatnashib, xorijiy davlatlar olimlari bilan muntazam ravishda do‘stona ilmiy yozishmalar bilan muloqotda bo‘lgan.

Olim XX asr boshi va 20-30 yillar O‘zbek adabiyotining Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Ziyov Said singari namoyondalari asarlarini to‘plash va nashr etish, ular ijod va merosini tashviq va targ‘ib qilishda ham faol ishtirok etgan. A.Navoiy, So‘fizoda, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Sadridin Ayniy, Tavallo, Hoji Mo‘yin, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Hamza, Abdulhamid Cho‘lpon, Elbek, Vadud Mahmud va boshqa ma‘rifatparvarlarning hayoti va ijodi borasida fanga ko‘p yangi ma‘lumotlar taqdim qilgan.

Akademik Naim Karimov shunday ta‘kidlaydi: “Fan va xo‘jalikning turli sohalarida zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yoshlarning yuqori malakali kadrlar bo‘lib qaytishi xalqimiz va mamlakatimizning keyingi taqdiriga katta ijobiy ta‘sir o‘tkazishi mumkin edi. Afsuski, O‘zbekistonning mustamlaka tarzida qolishidan manfaatdor bo‘lgan sovet davlati ularni Germaniyaning josuslari va millatchi unsurlar sifatida qatag‘on qildi. Adabiyotshunos olim Sherali Turdiev uzoq yillar bu qurbonlar va qatag‘ondan qochib, Turkiyada panohtopgan sobiq talabalarning fojiali taqdirini sinchkovlik bilan o‘rgandi va “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” kitobini ahli ilmga taqdim qildi.”¹

Ziyoli ekani uchun hukumat g‘azabiga uchragan Turkistonlik vatandoshlarimizning xotirasi uchun yaratilgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi”ning tashkil topishi va boyitilishi zamirida Sh.Turdievning arxivlar bilan ishlagan butun umri davomida faktlar izlab qilgan xorijiy safarlari, manbalarni o‘rganish, ustida ishlash, ommaga e‘lon qilish maqsadida qilgan salmoqli mehnati, bebaho xissasi bor.

Sherali Turdiev qalamiga mansub, 1994 yil “Muloqot” jurnalining 3-4 faslida chop etilgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” nomli maqolani 30 yil o‘tib, ilm ahliga yana havola etishni joiz deb topdik.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY”

Xurofot va jaholat, mutloq hokimiyat egalari feodal-patriarxal xonlik, amirlik va mustamlakachilikning tazyiq va ta‘qiblari XIX asrning ikkinchi yarmi va oxirlarida Furkat va Axmad Donish singari ilg‘or o‘zbek, tojik ma‘rifatparvarlarining takdirlarida xam ochik ko‘rinadi. Bu kurash va ziddiyatlar ayniqsa 1905 yilgi rus inqilobidan so‘ng kuchaya boshladi. Bu davrda o‘lkada jaholat va xurofot, qoloqlikka karshi yangi ilg‘or ma‘rifat, madaniyat, erkin xayot uchun kurashib, ijtimoiy hayotda yangi burju-

¹ Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Т.: 2006. – 256 бет.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

demokratik islohotlar o‘tkazishni targ‘ib kilib chiqa boshlagan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mirmuhsin Shermuxamedov, Abdurauf Fitrat, Muxammad Sharif So‘fizoda, Sadriddin Ayniy kabi ilg‘or fikrli ziyolilar jadidlik yoki kofirlikda ayblanib, qattiq ta‘qib va tazyiqlarga uchray boshladilar. Jumladan, Sadriddin Ayniy kaltaklandi va Kogon kasalxonasida davolanib, Samarqandga qochib qutuldi, ukasi Mirzo Sirojiddin esa amir zindonida o‘ldirildi. Mirmuhsin Shermuhamedov Buxoro sharifning eski usul idorasini va madrasa ta‘limini tanqid kilib chiqqani uchun Toshkentdagi mutaassiblar tomonidan o‘lim jazosiga hukm kilinadi. Oxiri Rossiyaga qochib, o‘limdan qutulib qoladi.

Tarixda «Turkiston jadidlarining otasi» deb nom olgan Mahmudxo‘ja Behbudiy takdiri esa ayniqsa fojiali bo‘ladi. U Oktyabr to‘ntarishidan keyingi dastlabki yillarda hali Buxoroda o‘rta asr feodal-amirlik tuzumi, jabr-zulmi davom etayotgan bir sharoitda Buxoro tuprog‘idan o‘tayotganda Shaxrisabzda qo‘lga olinib, amir buyrug‘i bilan Qarshi shahriga keltiriladi va bu yerda amir zindonida yotib “jadid”, “kofir”, “tilchi”likda ayblanib, Karshi begi Tog‘aybek tomonidan sheriklari bilan yovuzlarcha qatl etiladi.

Xo‘sh, Buxoro amiri amaldorlari tomonidan “jadid”, “tilchi” (josus), “kofir” laqabini olgan va shu «gunohlar» ila yovuzlarcha qatl etilgan Behbudiy o‘zi kim edi? Uning Turkiston ijtimoiy-madaniy hayoti tarixida tutgan o‘rni va ahamiyati nimalardan iborat edi? Nima uchun u «O‘rta Osiyo jadidlarining otasi», ustoz, birinchi o‘zbek teatri musannifi deb nom olgan? Oktyabr to‘ntarishidan keyingi dastlabki yillardayoq uning vafoti munosabati bilan xotira kechalar o‘tkazilib, maqolalar yozilgan, uning nomiga maktab, rayon, shaharlar qo‘yila boshlagan? Bu savollarga javob berish uchun uning tarjimai holi, ijtimoiy va ma‘rifatchilik faoliyati hamda teatr sohasidagi xizmatlariga, zamondoshlarining unga munosabati va baholariga qisqacha to‘xtab o‘tish kerak bo‘ladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1874 yilda hozirgi Samarkand oblasti Baxshitepa qishlog‘ida tavallud topib, boshlang‘ich ma‘lumotni o‘z yaqinlaridan ola boshlaydi. Tog‘asi muftiy mulla Odildan arab tili va boshqa ilmlarni o‘rganadi. 1894 yilda otasi vafotidan keyin u turmush qiyinchiligidan o‘qishni tashlab, qozi tog‘asi Muhammad Siddiq yonida mirzalik kiladi. Tog‘asi qozilikdan tushgach, Behbudiy ham mirzalikdan bo‘shaydi. Sal keyinroq Kobod bo‘lisida Mulla Zubayr qozixonasiga mirzalikka borib, undan muftiylik idorasiga o‘tadi.

Ma‘rifatga ishq tushgan Mahmudxo‘ja Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga borib ilm olishni orzu kilar edi. Birinchi bor 1900 yilda Arabistonga hajga jo‘nab, Istambul va Qohira kabi shaharlarda (1900, 1914) yangi usul maktablari, yuqori bilim yurtlari, eski maktab va madrasa islohotlari, yangi arab, turk adabiyoti va matbuoti,

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

o‘quv va o‘qituv tajribalari bilan tanishib qaytadi. U Rossiyada: Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburgda (1903-1904) bo‘lib, u yerdagi yangi usul tatar maktablari, ta'lim-tarbiya tizimi, adabiyoti va matbuoti, ayniqsa Boqchasaroyda chiqib turgan Ismoil Gaspirinskiyning «Tarjumon» gazetasi bilan tanishadi. Mahmudxo‘ja shu ko‘p yillik sayohat, tanishuv tajribalari ta'siri ostida Samarqandda yangi usul maktablar ochadi, o‘zbekcha, tojikcha yangi o‘kuv qo‘llanmalari yozadi. (1903-1904) «Kitobul atfol» («Bolalar uchun kitob»), «Muxtasari jug‘rofiyai Rusiyya» (Rusiyaning qisqacha geografiyasi) kabi kitoblarni nashr ettiradi, «Samarqand» nomida gazeta va «Oyina» (1913) nomida jurnal chikara boshlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z gazetasining tepasiga «Islom millatining saodat va islohoti, musulmonlarning zamona fanlaridan foydalanmoqlari uchun yozilgan turkiy va forsiy tilida maqola va she'rlar qabul kilinadi», deb yozib ham qo‘yadi. «Samarqand» gazetasi o‘zining bu shiorini amaliy faoliyatida isbotlab 44 son chiqqach, to‘xtaydi, uning o‘rnida o‘sha yildan boshlab «Oyina» jurnali chiqa boshlaydi. Jurnalning shiori ham «Samarqand» gazetasi shioriga hamohang bo‘lib, unda ham «Turkiy va forsiy o‘rta shevada (ba'zan ruscha) haftalik majalloyi islomiyadir» (millati islomiyaning saodat va islohina, musulmonlarning madaniyat va fununiy zamonidan naflanmoqlariga haqlidir», deb yozilgan edi.

Mahmudxo‘ja bu davrda «Padarkush» nomli pesa xam yozib, uni 1912 yildan Buxoroda chiqib turgan «Turon» gazetasida bostira boshlaydi. Lekin pesaning alohida kitob bo‘lib bosilishi va sahnalashtirilib, tomoshabinlarga ko‘rsatilishi chor senzurasining to‘siq va qarshiliklari oqibatida ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Behbudiy pesani bostirish uchun ruxsat so‘rab, dastlab Turkiston general-gubernatoriga yuboradi, biroq bosishga ruxsat berilmagach, boshqa yo‘llar qidirib, pesaning muqovasiga ruscha kilib: «Rossiyaning fransuz istilosidan ozod bo‘lishi va mashhur Borodino jangi xotiralari yubileyiga bag‘ishlayman» deb, senzuraning Tbilisi komitetiga yuboradi. Oradan ikki yil o‘tgach, 1913 yil 23 iyulda ruxsat etilgan nusxasining mukovasida “razresheno senzuroyu Tiflisskoy Komitetom po delam pechati k postanovke na ssenax Kavkazskogo kraya. 23. III. 1913 g. Xan 19940” deb yozilgan edi. Shundan so‘ng bu pesa 1913 yilda Samarqandda Gazarov va Sayanov matbaasida bosilib chiqadi (qarang: M. Rahmonov. O‘zbek teatri tarixi. UzSSR Fan, Toshkent, 1968, 280-bet).

Pesaning dastlabki sahnalashtirish va o‘ynalishida ham qiyinchiliklar oz bo‘lmaydi. Ha deganda uni sahnalashtiruvchi va rollarda o‘ynovchi artistlar ham topilmaydi. Teatru qachon ko‘yiladi? kabi savollarning tushishi va bunga «Oyina» jurnalining o‘sha vaqtlardagi izohli javoblari ham buni yaqqol tasdiqlaydi. Jurnal

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

o‘zining 1913 yil, 51-sonida bu haqda shunday deb yozadi: «O‘ynayturg‘on odam yo‘q. Azbaski, Turkistonda bekor odam yo‘q. Azbaski, Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Va bekor kishi yo‘qki, teatru sahnasida chiqib «masxarabozlik» qilsa. (Chunki Turkistonda teatruni masxarabozlikdan ayirmaydirlar): qachonki artistlik zahmatini zimmasiga oluvchi 10 kishi topilsa o‘ynalur». Lekin shunga qaramasdan oradan ancha vaqt o‘tgach, samarqandlik bir necha mahalliy o‘zbek, tatar, Ozarbayjon teatr havaskorlari tomonidan «Padarkush» sahnaga qo‘yilganligi va tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otib, o‘lkada teatrga bo‘lgan havas va qiziqishni kuchaytirib yuborganligi yozib o‘tiladi: «Padarkush» fojiasi ila «Aldadik va aldandik» voqyeasi qo‘yildi. «Padarkush» nihoyatda yaxshi amalga qo‘yilgani hozir bo‘lg‘on har kishining roziligidan ma‘lum edi. Xalq nihoyatda qo‘l kelib, bilet yetma- gani va joy yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketdi. Ibratxonaning borliq o‘rni 320 nafarga kifoya qilar edi. Yana ellik qadar o‘rin hozirlangan bo‘lsa ham kifoya etmadi. Biletlar ikki kun avval yoshlarning g‘ayrati bilan sotilib tamom bo‘lib edi. Ba‘zi kishilar biletlarini ikki bahoga foydasi bilan boshqaga sotdilar. Soat 7 dan minglab xalq ibratxonaga hujum kilg‘on, ammo bilet yo‘k. Uch so‘m berib tikka turmoqqa ham rozi, yana yer yo‘q. Ushbu jihatdan ibratxona boshlig‘i muhtaram xamshaharlaridan uzr tilaydir» (qarang: «Oyina» jurnali, 1914 yil, n. 14, 25 yanvar).

Behbudiy bu davrda sayohatchi va publitsist sifatida yana boshqa bir qancha muhim ijtimoiy, siyosiy masalalarni ham yoritadi. Qoloqlikdan qutulish va taraqqiyotga erishish uchun Turkistonda dunyoviy va diniy ilmlarni o‘rganuvchi yangi ziyolilar yetkazish, maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi usul maktablarni rivojlantirish, bu yo‘ldagi to‘siqlarga qarshi kurash, dunyo tillarini o‘rganish kerak, deydi. Behbudiyning bu qarashlari ayniqsa uning shu davrdagi qator maqolalarida «Turkiston idorasi» («Sho‘ro» jurnali, 1908, n. 23), «Buxoroda usuli jadid» («Turkiston viloyati gazetasi», 1909, 8 noyabr), «Ehtiyoji millat» (o‘sha gazeta, 2 oktyabr), «Ja‘miya- ti hayriya» («Oyina», 1913, № 7), «Ikki emas, to‘rt til kerak» (o‘sha jurnal, № 6), «Bizga islohot kerak» («Najot» gazetasi, 1917 yil, 17 aprel) yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan u, «Ja‘miyati hayriya» nomli maqolasida bu xususda to‘xtab: «Toki bu jamiyat xalqdan aqcha jamlab, millat bolalarini o‘qitsa va millatni yandasi (ehtiyoji) uchun kerak bo‘ladigan qozi (ya‘ni sudya), zakonchi (ya‘ni huquqshunos), injener (ya‘ni muhandis), muallim (ya‘ni zamon muallimlari), millatning homiysi xodimi (ya‘ni davlat dumasiga deputat), milliy sanoat xonalarimizni iloj etuvchi (ya‘ni texnik), tijoratxona va banklarda bizga yordam beruvchi (ya‘ni tijorat ilmini o‘kig‘on kommersant), biz uchun, vatan ulus uchun, dini islom uchun, zamon uchun, fuqaro uchun ishlaydigan odamlarni yetishtirmak kerakdur». («Oyina» jurnali, Samarqand, 1913 yil, № 7), deb yozadi.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Behbudiy 1917 yil fevral revolyusiyasidan so‘ng Turkistondagi ko‘pchilik ziyolilar: Hamza, A. Avloniy, S. Ayniy, M. Shermuhamedov, Tavallo va boshqalar kabi mustabid chor hukumatining ag‘darilib, o‘rniga burjua erkinligi hukumati o‘rnatilganligini tabrikladi. U 1917 yil 18 aprelida Umumturkiston musulmonlari Qurultoyida Turkistonda Rossiya tarkibidan ajratib, alohida federativ davlat tuzishni talab qilgan bo‘lsa, Toshkentda chiqib turgan «Ulug‘ Turkiston» gazetasining 1917 yil 12 iyunda bosilgan «Haqiqatning bayoni» nomli maqolasida bu federatsiyaning mohiyatini yana ham konkretlashtirib, uni despotik - zulm-istibdodli davlatga qarshi erkin, demokratik ruhdagi ittifoq tarzida izohlab, shunday deb yozgan edi: «Biz istaymizki, butun Rusiya musulmonlari muxtoriyat (federatsiya) usuli yuzasidan tiriklik qilsunlar. Rusiya musulmonlarining har bir sho‘basi muhiti jo‘g‘rofiy va mamlakatlarini hudud tabiiyasi (chegarasi) bo‘yicha ayrim bo‘laklarga bo‘linib, o‘z taraflaridan o‘z hurriyat va odatlariga muvofiq... idora qilinib va butun Rusiya musulmonlari uchun Rusiya poytaxtida bir «Musulmon markaziy idora» vujudga keltirib siyosiy va iqtisodiy va mamlakat ishlariga ruslar ila qo‘lma-qo‘l ushlab dunyo va taraqqiy maydoniga harakat va birga javlon etulsun... Biz istaymizki, Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yahudiy va boshqalar qo‘shilgan holda o‘z boshlariga Rusiyaning bir parchasi hisoblanaturg‘on Turkiston hukumini (hukumatini) ta‘sis etsak, o‘zimizning majlis muborovatimiz (parlamentarizm) bo‘lsin. Turkiston musulmonlari shariat va odatlariga, o‘z zakon va dinlariga muvofiq tiriklik qilsinlar. Turkiston yahudiy, nasroniy va musulmonlari uchun hammalarining manfaatlarini e‘tiborga olaturg‘on qonunlar tuzilsin. Agarda biz Turkiston musulmonlari xohlasakki, din va millatimizni.. ittifoq etib, bugundan islohotga, ittifoqqa qadam qo‘ysalar... ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz, boy va ulamomiz birlashib, din va millat, vatan rivoji uchun xizmat etsak... O‘zimizdan bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo‘lunsin. Ul... milliy askarlarimizni vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va tarzi maishatini o‘zimiz tayin qilurmiz. Mana bizni oldimizda eng katta ishlar turibdur... Va‘l, xozirgi Turkiston ahvoliga karaganda yana biz musulmonlar ruslarning fuqarosi va ra‘iyasi bo‘lgan o‘lkadek, alardan dast va rijoga qolurmiz. Koloniya (mustamlakot) qoidasi ila bizni idora etarlarki, bunga o‘z ixtilofimiz sabab bo‘lur». (Muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiy. “Bayoni haqiqat”, “Ulug‘ Turkiston” gazetasi, 1917 yil 12 iyun (№80), 3-bet.)

Mahmudxo‘ja Behbudiy umrining oxirigacha Turkistonning ma‘rifati, taraqqiyoti, istiqboli va istiqloli uchun kurashdi. U bu yo‘ldan hatto 1919 yil boshlarida Buxoro amirining dahshatli zindonida o‘z qatlini kutib yotgan og‘ir damlarda ham voz kechgan emas. U o‘lim oldida ham Turkistonda, Buxoro yerlarida maorif nurlarini yoyish, elni jaholatdan, qullikdan qutqazish, ularga haqiqat, adolat va ozodlik yo‘llarini ko‘rsatishga,

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bu yo‘lda qurbon bo‘lganlarni unutmaslikka chaqiradi: «Ey, Turkiston maorif ishlarida bo‘lgan o‘rtoq va o‘g‘lonlarim. Men o‘zim garchand bandi bo‘lsam-da sizlarni esimdan chiqarmayman va sizlarga biroz vasiyat qilib o‘taman.

«Mani sevar o‘rtoqlarim! Manim so‘zlarimni quloklaringizga olingizlar. Biz ikki oydan beri Buxoro shaharlarida bandi bo‘lib yurib, oxir o‘n kundan beri bu epda (Qarshi shahrida) bu zolimlarning qo‘liga tushib bandi bo‘ldik. Jadid, kofirlik otini ko‘tardik. Bu yerdan qutulmog‘imiz gumon buldi.

“O‘rtoqlarim Siddikiy, Ayniy, Fitrat, Qori va Akobir mahdum va o‘g‘lonlarim Vadud Mahmud, Abdukodir Shakuriy!

Sizlarga vasiyat qilaman: maorif yo‘lida ishlayturg‘on muallimlarning boshini silangizlar. Maorifga yordam etingiz. O‘rtadan nifoqni ko‘taringiz. Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangizlar. Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar. Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatingizlar. Bizdek maorif qurbonlarini yo‘qlangizlar. Buxoro tuprog‘iga tezlik ila yo‘l boshlangizlar. Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar. Bizning qonimizni zolim beklardan talab qilingizlar. Maorifii Buxoro tuprog‘ida joriy qilingizlar. (qarang: Hoji Mo‘yin «Muftiy Mahmudxo‘ja hazratlarining qanday shahid bo‘lganligi va oning tomonidan yozilg‘on vasiyatnoma». «Inqilob» jurnali, 1922, № 1, 37-38-betlar).

Bexbudiyning dahshatli o‘limi o‘sha davrda Turkistonning tarixiy taraqqiyoti uchun katta yo‘qotish bo‘ldi, uning shogirdlari, ihlosmandlari va do‘stlari qalbini chukur larzaga soldi, og‘ir kayg‘u-alam va iztiroblarga ko‘ydi (S. Ayniy, «Behbudiyl ruhina ittixof», Fitrat «Behbudiyning sag‘anasini izlab», Cho‘lpon «Maxmudxo‘ja xotirasi», Nihoniy «Zavolli quyosh» kabi motam marsiyalari). U xaqda yozilgan marsiya na maqolalarda, xotiralarda Turkiston maorifi, ijtimoiy, madaniy hayoti taraqqiyotida Behbudiyning tutgan o‘rni, ahamiyati ko‘rsatilib, uning nomini abadiylashtirish masalalari ko‘tarildi (Laziz Azizzodaning «Behbudiyl» kabi maqolasi va boshkalar), uni «O‘zbek muharrirlarining otasi», «o‘z zamonida Turkiston jadidlarining eng faol va eng ma‘lumotli rahbarlaridan (A. Sa‘diy. «Behbudiyl va uning tegrasiga yig‘ilgan yozuvchilar, «Turkiston» gazetasi, 1923 yil 10 dekabr) sifatida baholandi. «Siyosiy va ijtimoiy ishchanligi, "ma‘lumotining turliligi jihatdan o‘sha zamondagi Turkiston jadidlari ichidan Behbudiyl bilan tenglashtiraturg‘on bir kishi yo‘k edi desak bo‘ladi» (Fayzulla Xo‘jaev. «Istoriya Buxari, Uz gosizdat. T., 1932, str. 10) deb yozildi. Marxum sharqshunos olim Laziz Azizzoda esa Behbudiyning sobiq Turkiston o‘lkasining ijtimoiy, madaniy va adabiy rivojidadagi o‘rni, roli va ahamiyatiga juda katta baho berib, uni hatto fransuz ma‘rifatparvari Jan Jak Russo, rus inqilobchi demokratlari N. G. Chernishevskiy. Dobrolyubovlari, tatar va ozarbayjon ma‘rifatparvarlari Shahobiddin Marjoniy, Qayum Nosiriyl, Mirza Fatkali Oxundov, Naxafbek Vazirovlari bilan

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qiyoslagan, O‘zbekistonda Navoiy, Ulug‘bek kabi buyuk zotlar bilan birga Behbudiyga ham haykal o‘rnatish kerak» (Laziz Azizzoda. «Behbudiy» «Maorif va o‘qituvchi», 1926, №2) - deb yozgan edi. Uning biograflari Behbudiyning inqilobgacha va inqilobdan keyingi Turkiston, Kavkaz, ichki Rossiya, Qrim, Qozon, Orenburg gazeta, jurnallarida qariyb 200 ga yaqin maqolalar e‘lon qilgani, bular bir yerga to‘plangan taqdirda 400-500 betlik bir kitob bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdilar (qarang: Hoji Muyin «Mahmudxo‘ja Behbudiy», «Zarafshon» gazetasi, 1922 yil 4 mart). Bundan tashqari Behbudiyning bosilmay turgan yana bir sahna asari, shuningdek, shariat bo‘yicha meros masalalariga oid 200 sahifalik «qo‘lyozmasi, fors va turk olimlarining tajribalari asosida yozilgan astronomiyaga oid asari, musulmon ayollarini qullikka solgan fanatik-despotik turmushini tanqid qilib yozgan maqolalar to‘plamini ham nashrga tayyorlash arafasida bo‘lganligini qayd etdilar. (qarang: M. F. «Maxmudxodja Beg‘budi». («Materiali dlya biografii»). Jurnal «Наука и просвещение», 1922, № 1).

Rus teatr tarixchisi B. A. Pestovskiy «Behbudiy butun umrini o‘zbek sahnasi, adabiyoti, matbuoti va maktabi uchun tikdi va bu yo‘lda butun borlig‘i bilan ishladi. Bu zot o‘zi-o‘zini qurbon berib tamomladi. Behbudiyning o‘z maslagi yo‘lida qurbon bo‘lmog‘i o‘zbek xalqining unga bo‘lgan muhabbat va ehtiromini tag‘in ham oshirdi. Bu kunda Toshkentning ko‘hna qismida Behbudiy nomiga ochilgan madaniy-maorif klubi, Samarqandda kitobxona va drama truppassi, Turkistonning hamma shaharlarida deyarlik uning nomiga ochilgan maktablar, Buxoroda markaziy bosmaxonalar bor», - deb yozadi (qarang: B. Pestovskiy. «Uzbek teatri tarixi». «Inqilob» jurnali, 1922, № 3).

B. Pestovskiyning fikricha, Mahmudxo‘ja Behbudiy «o‘zbek teatrining asosini qurib beruvchi, uning «Padarkush» pesasi esa samarqandlik arxeolog Vyatkinning so‘ziga qaraganda Fonvizinning «Nedorosl» pesasi ta'sirini ham kechirgan. Shundan keyingi vaqt ichida to 1930 yillarning o‘rtalarigacha Behbudiyning fojiali o‘limi haqida ayrim sahna asarlari (Hojimurodning «Maorif qurbonlari» fojiasi), uning nomiga shahar, rayon nomlarini qo‘yish davom etadi) karang: M. Hasan. «Behbudiy» (shu nomdagi shahar haqida ocherk), «er yuzi», 1928, № 9. A. Tojiboev «Behbudiy rayonida», «Qizil O‘zbekiston», 1937 yil 24 mart), uning tarjiman holi va «Padarkush» pesasi prof. A. Sa'diyning «O‘zbek burjua adabiyoti» (VI o‘qish yili uchun darslik, 1934), M. Buzruk Solihovning «O‘zbek teatri tarixi uchun materiallar» (T. 1935) kitoblarida bosilib turadi.

30-yillarning oxirlariga kelib esa Stalin shaxsiga sig‘inishning avj olishi munosabati bilan butun mamlakatda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham vulgar sotsiologik tanqidning kuchayishi munosabati bilan Cho‘lpon, Fitrat ijodlari kabi, Behbudiy ijodi ham asosan burjua millatchiligi, jadidchilik namunasi tarzida talqin

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qilina boshlandi. (qarang: S. Xusayn «O‘zbekiston sovet dramaturgiyasiga umumiy qarash» kitobida. 15 yil ichida o‘zbek sovet adabiyoti. T., 1939, 107-108-betlar).

Shundan keyingi davrda Abdulla Qodiriy, Tavallo va boshqalarning asarlari qatori Behbudiyning “Padarkush”i ham o‘kuv qo‘llanmalari, xrestomatiya va teatr risolalaridan chiqarib tashlandi. Mahmudxo‘ja Behbudiyni nomi bilan bog‘liq bir qancha madaniy muassasa, maktab, rayon va shahar nomlari ham tarixdan o‘chirildi.

1956 yilda ijtimoiy hayotda shaxsga sig‘inish oqibatlarini tugatish uchun kurash munosabati bilan o‘zbek adabiyotshunosligida ham Abdulla Qodiriy, G‘ulom Zafariy, Behbudiyni, Cho‘lpon, Fitrat ijodlariga ham qayta baho berila boshlandi. Ularning o‘zbek adabiyoti va teatri tarixidagi o‘rni va ahamiyatlari yangicha talqin qilina boshlandi. Bular ichida XX asr boshi o‘zbek adabiyotida realizm masalasini tekshirgan E. Karimov bu davr ma’rifatchilik harakati va dramaturgiyasida Behbudiyni, Fitrat faoliyati va ijodlarini asosan ijobiy ruhda tekshirdi, bu jihatdan uning karashlari muayyan darajada B. Pestovskiyning «O‘zbek teatri tarixi» va Xoliq Mirzazodaning «Adabiyoti jadidai demokrati» maqolalaridagi fikrlariga hamohangdir. Solih Qosimovning so‘nggi maqolalarida («Behbudiyni va jadidchilik», «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati», 1990, 19, 26 yanvar) ham Behbudiyni XX asr boshidagi va inqilobdan keyingi faoliyati, publitsistik va dramatik ijodi o‘sha davr murakkab ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy oqimlari, qarama-qarshi yo‘nalishlari bilan bog‘lab o‘rganiladi.

Lekin shunga qaramasdan, prof. A. Sa’diyni darslik va xrestomatiyalari, B. Buzruk Solihovning «O‘zbek teatri tarixiga materiallar» kitobidagi Behbudiyni biografiyasi va uning «Padarkush»dan bosilgan ayrim sahnalarni va keyingi vaqtda vaqtli matbuotda e’lon qilinayotgan ayrim maqola va pesalarini hisobga olmaganda Behbudiyni revolyusiyaga va so‘ngra o‘zbek, tojik, tatar, ozarbayjon matbuotida bosilgan maqola, sayohat va xotiralari, qo‘lyozma sahna asari, astronomiya va musulmon xotin-qizlarining huquqiga oid majmualari shu vaqtgacha hali bir joyga to‘la to‘plangan va o‘rganilgan emas. Ularni izlab topish, bir joyga to‘plash, atroflicha o‘rganish, uning boy va ko‘pqirrali adabiy, ilmiy merosini bugungi milliy istiqlol kunlarimizning yangi vazifalaridan kelib chiqib qayta baholash va nashr qilish kerak bo‘ladi.

Muloqot” jurnali muhbirlarining adabiyotshunos olim Sherhali Turdiev haimdagi ta’rifi: (1994) Sherhali TURDIEV - zahmatkash va sermahsul adabiyotshunos, ko‘zga ko‘ringan olim, kamtarin va pokdil inson. Doimo yangilik bilan yashaydi, tinmay izlanadi. Izlagan topadi deydilar. U kishi topgan yangiligini doimo ilm ahli bilan baham ko‘radi. O‘z muhlislariga asalari singari bol eltadi. O‘zbek adabiyotshunosligida birinchilar qatorida sho‘rolar istibdodiga qarshi, milliy istiqlol uchun kurashga hissa

qo‘shgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ismoil G‘aspirali, Fitrat va Cho‘lpon ijodini tadqiq etib, xalqimizga tanishtirdi. Uning «Hayotbaxsh ta'sirlar», «Adabiy hamkorliklar samarasi», «Ular Germaniyada o‘qigan edilar» singari kitoblari ziyolilar va xalq orasida qizg‘in kutib olindi.

Cho‘lpon mukofoti sovrindori, xoksor inson, izlanuvchan olim Sherali Turdievga «Muloqot» jurnali ijodiy jamoasi u kishining ijodiga baraka tilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Turdiev. Mahmudxo‘ja Behbudiy // Muloqot, № 3-4, 1994. 44-48 betlar.
2. Sh.Turdiev. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. – T.: 2006. – 256 bet.
3. H.Turdieva. Fidoiy olim, benazir adabiyotshunos // Sharq yulduzi, № 8, 2022. B. 148-158.